

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

2-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 2 (6) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i><br>O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY<br>MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI<br>(Sirdaryo viloyati markazlari misolida) ..... | 11-15 |
| <i>Djurayev Ikrom Nematovich</i><br>SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING<br>IZLARI .....  | 16-19 |
| <i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i><br>МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ:<br>СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....  | 20-26 |
| <i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i><br>SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH:<br>MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....  | 27-31 |
| <i>Sitorabonu Bobojonova</i><br>BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....   | 32-36 |
| <i>O'ralov Orzubek</i><br>GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI<br>VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....  | 37-45 |
| <i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i><br>ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....  | 46-50 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|  |       |
|--|-------|
| <i>Madartov Bahrom</i><br>TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA<br>OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....  | 51-55 |
| <i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i><br>XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI<br>RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI .....   | 56-64 |
| <i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i><br>O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI<br>INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....   | 65-75 |
| <i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i><br>XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI<br>BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT<br>TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI<br>ASOSIDA BAHOLASH ..... | 76-87 |

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

|  |       |
|--|-------|
| <i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i><br>INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ..... | 88-93 |
|--|-------|

|  |         |
|--|---------|
| <i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i><br>O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI .....   | 94-97   |
| <i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i><br>JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....   | 98-102  |
| <i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i><br>RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .  | 103-108 |
| <i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i><br>KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR<br>MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI .....  | 109-117 |
| <i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i><br>KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARI .....  | 118-126 |
| <i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i><br>ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI<br>O'RNI MASALALARI .....  | 127-130 |
| <b>10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI</b>   |         |
| <i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i><br>INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI<br>O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....                  | 131-139 |
| <i>Babadjanova Nazokat</i><br>OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING<br>MA'RIFIY MANBALARI .....  | 140-148 |
| <i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i><br>ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI .....   | 149-153 |
| <i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i><br>MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR .....   | 154-161 |
| <i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i><br>CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI .....  | 162-165 |
| <i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i><br>THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND<br>PHRASEOLOGICAL UNITS..... | 166-171 |
| <i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i><br>TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY-<br>ESTETIK OMILLARI.....                                 | 172-185 |
| <i>Кодирова Зарина Баходировна</i><br>ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА:<br>«DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....                       | 186-191 |
| <i>Ismatilloev Jobir</i><br>"FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI .....  | 192-197 |
| <i>Bozorova Nasiba</i><br>O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA<br>RETROSPEKSIYA USULI .....  | 198-203 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i><br>ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ:<br>КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ..... | 204-212 |
|--|---------|

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|   |         |
|---|---------|
| <i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i><br>SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI<br>BARTARAF ETISH YO'LLARI.....  | 213-218 |
| <i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i><br>ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD" .....   | 219-226 |
| <i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i><br>КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ<br>ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН:<br>ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА .....                             | 227-229 |
| <i>Azходжаева Роза Алтыновна</i><br>РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....  | 230-235 |
| <i>Абдужаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i><br>ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ:<br>ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ .....  | 236-246 |
| <i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i><br>PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN<br>TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN<br>ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI ..... | 247-253 |
| <i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i><br>FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI<br>JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....  | 254-258 |
| <i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i><br>INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....   | 259-265 |
| <i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i><br>SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIISH SHARTNOMASINING<br>SPORT HUQUQIDAGI O'RNI .....   | 266-272 |
| <i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i><br>MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI<br>IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....  | 273-278 |
| <i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i><br>KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA<br>OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI .....   | 279-286 |
| <i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i><br>VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA<br>KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI<br>KUNDAGI AHAMIYATI .....   | 287-294 |
| <i>Ibrohimov Azimjon</i><br>XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI:<br>ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA .....  | 295-301 |



|   |         |
|---|---------|
| <i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI<br>QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA<br>TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....      | 302-310 |
| <i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i><br>MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI.<br>GERMANIYA TAJRIBASI.....  | 311-316 |
| <i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i><br>MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN<br>BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI<br>TAKOMILLASHTIRISH .....                           | 317-321 |
| <i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i><br>OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI<br>USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....  | 322-329 |
| <i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i><br>JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI<br>VA PROTSESSUAL AHAMIYATI .....   | 330-339 |
| <i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i><br>FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI<br>CHIQRISHNING AHAMIYATI .....   | 340-349 |
| <i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i><br>FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI .....   | 350-358 |
| <i>Yo'ldoshbekov Anvar</i><br>NAQDSIZ HISOB-KITOBBLAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING<br>HUQUQIY AHAMIYATI .....   | 359-367 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>  |         |
| <i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i><br>EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH<br>KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI .....  | 368-372 |
| <i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i><br>YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN<br>FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH .....  | 373-377 |
| <i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i><br>O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:<br>(DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH .....                                       | 378-383 |
| <i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i><br>SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK<br>O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING<br>MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA..... | 384-388 |
| <i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i><br>KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA<br>INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI .....  | 389-393 |
| <i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i><br>GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....  | 394-398 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i><br>IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED?<br>A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY<br>ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....           | 399-406 |
| <i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i><br>TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR<br>ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT<br>TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....    | 407-412 |
| <i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i><br>КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ<br>ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ .....  | 413-417 |
| <i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i><br>JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI<br>(SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....   | 418-421 |
| <i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i><br>AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI<br>O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....  | 422-429 |
| <i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i><br>YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH<br>YO'LLARI.....  | 430-435 |
| <i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i><br>INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH<br>ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....                     | 436-441 |
| <i>Nafasov Arslon Komilovich</i><br>PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI<br>TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....   | 442-447 |
| <i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i><br>BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV<br>SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN<br>FOYDALANISH ..... | 448-453 |

**Received:** 15 January 2026  
**Accepted:** 2 February 2026  
**Published:** 14 February 2026

*Article / Original Paper*

## **DIGITALIZATION OF THE WATER SUPPLY SYSTEM: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

**Olimov Islombek**

Assistant-teacher, Department of Social Sciences,  
University of Business and Science

E-mail: [islombek.olimov92@gmail.com](mailto:islombek.olimov92@gmail.com)

**Abstract.** The article analyzes the process of digitalization of the water supply system in Uzbekistan, existing problems, regulatory and legal frameworks, and practical solutions aimed at effective management of water resources.

**Keywords:** water supply system, digitalization, water resources management, irrigation and land reclamation, water-saving technologies, smart water systems, environmental sustainability.

---

## **SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li**

Biznes va fan universiteti ijtimoiy  
fanlar kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda suv ta'minoti tizimini raqamlashtirish jarayoni, mavjud muammolar, normativ-huquqiy asoslar hamda suv resurslarini samarali boshqarishga qaratilgan amaliy yechimlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** suv ta'minoti tizimi, raqamlashtirish, suv resurslarini boshqarish, irrigatsiya va melioratsiya, suv tejovchi texnologiyalar, aqlli suv tizimlari, ekologik barqarorlik.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N04>

**Kirish.** Suv resurslarini samarali boshqarish va muhofaza qilish ekologik barqarorlik va aholining sog'lig'i uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni asosida suv resurslarini himoya qilish, tabiiy va sun'iy suv havzalari barqarorligini ta'minlash, shuningdek kommunal va sanoat oqova suvlarini tozalash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi. Shu kontekstda, respublika bo'yicha suv ob'yektlari, suvni muhofaza qilish zonalari va sohil bo'yi hududlari tasdiqlandi, ichki suv tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va ekologik nazorat tizimlari kuchaytirildi.

O'zbekiston suv tanqisligi yuz berishi mumkin bo'lgan mamlakatlar sirasiga kiritilmoqda. Suv tanqisligi tobora kuchayayotgan bugungi kunda mamlakatimizda obihayotni qadrlash, tejab foydalanishga alohida e'tibor qaratilayotgani sababi ham shunda.

**Metodologiya.** Tadqiqot sifat tadqiqot dizayniga asoslangan bo'lib, quyidagi metodlarni qo'llaydi: hujjatlar tahlili (documentary analysis), statistik tahlil (statistical analysis), keys-

stadi (case study) va qiyosiy tahlil (comparative analysis). Tadqiqot davr chegarasi: 2022-2026 yillar (bugungi holat). Ma'lumotlar manbalari: Tadqiqotda quyidagi manbalardan foydalanildi:

Rasmiy statistika: O'zbekiston Statistika agentligi, Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi ma'lumotlari; Davriy nashrlar: gazeta, jurnallardagi maqolalar; Yangiliklar manbalari: Kun.uz, gazeta.uz, daryo yangiliklari; Ilmiy manbalar: olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, BMT Taraqqiyot Dasturi doirasida olib borilgan tadqiqotlari.

**Natijalar.** O'zbekistonda so'nggi yillarda suv bo'yicha olib borilgan islohotlar natijasida 472 ming gektar yer tomchilatib, 48 ming yer maydoni esa yomg'irlatib sug'orishga ixtisoslashtirildi. 97 ming gektar maydonda bo'lsa boshqa suv tejavchi texnologiyalar joriy qilinganligini ko'rish mumkin [9].

Mamlakatimizning 20 foizga yaqin suv resuri o'zimizda, qolgan qismi qo'shni davlatlarda shakllanadi. Iqlim o'zgarishi oqibatida suv manbalari yil sayin kamayib, aholi soni va suvga talab ortib bormoqda. Bularning ta'sirida 2030-yilga borib yurtimizdagi suv tanqisligi 15 milliard kub metr ga yetishi prognoz qilinyapti. O'zbekiston foydalanadigan suv resurslarining 90 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi sohasida sarflanyapti. Mintaqada irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari eng ko'p va yirik suv xo'jaligi infratuzilmasiga ega davlat hisoblanib, sug'oriladigan ekin maydonlari 4,3 million gektarni tashkil etadi. Shu bilan birga, 60 foizdan ortiq yer nasos stansiyalari yordamida sug'orilishi, 50 foizga yaqin sug'oriladigan maydon turli darajada sho'rlangan bo'lib, meliorativ tadbirlar o'tkazilishi vazifalarimiz murakkabligini ko'rsatadi [2; 39].

Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish jarayonida 2024-yil sug'orish tarmoqlarida suv yo'qotishlarini kamaytirishga qaratilgan zarbdor yil sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, 2025-yilda nasos stansiyalarining samaradorligini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi [10].

Sohaga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, suv xo'jaligini rivojlantirishni hamda suvni tejash bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi [4]. Suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari qo'llanilmoqda.

Xususan, AQSh, Turkiya, Xitoy, Avstraliya va boshqa ilg'or mamlakatlar tajribalari amaliyotga tadbiriq etilmoqda. Mazkur jarayonlarga respublikamizda joriy etilayotgan tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, diskret sug'orish hamda yerlarni lazer texnologiyalari yordamida tekislash tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

So'nggi o'n yillikda mamlakatda suv resurslari va obyektlarni muhofaza qilish bo'yicha bir qancha normative huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Mamlakatning "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida[5] qishloq va komunal xo'jaliklarida suv resurslarining kamayishi va ifloslanishini oldini olish nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida[6] ham yerlarni sug'orish amaliyotini soddalashtirish va takomillashtirish, suv va energiyani tejash, suv resurslarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik, suvdan foydalanuvchilar tomonidan xarajatlarni qisman qoplash chora-tadbirlar belgilangan. Quyi

bo'g'inda suv resurslarni boshqarishni takomillashtirish, suv istemolchilar orasidagi munosabatlarni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi qarorlar qabul qilinishi olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi[7]. 2024-yil 22-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risda"gi qonuni suv resurslarini sohasida samarali boshqaruvni joriy etishga xizmat qildi[8]. Ushbu qonun bilan Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi irrigatsiya bo'limlari, maxsus xizmatlar negizida tashkil etilgan suv yetkazib berish xizmati davlat muassasalarining vazifa va vakolatlariga, shu bilan birga qishloq xo'jaligi ehtiyoji uchun suv olish limiti xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari tomonidan tasdiqlanishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Yuqorida yoritib o'tilgandek islohotlar olib borilishi natijasida, iqtisodiy tarmoqlar suv bilan barqaror ta'minlanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini ishonchli ishlashiga erishildi. Jumladan, 2022-yilda olib borilgan islohotlar natijasi o'laroq suv tejaydigan umumiy qamrov 25 foizni tashkil etdi. Natijada, 3 mlrd metr kub suv tejashga erishildi [2; 42].

2023-yilda 190 ta irrigatsiya va melioratsiya obyektida qurilish hamda rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Melioratsiya yo'nalishida 230,3 kilometr ochiq, 156 kilometr yopiq drenaj tarmoqlari, 6 ta vertical drenaj qudug'i, 59 ta gidrotexnik inshoot, 58 ta kuzatuv qudug'i qurilib, rekonstruksiya qilindi. Irrigatsiya tizimini raqamli boshqaruv tizimiga o'tkazish uchun 7339 ta "aqlli suv", 2578 ta "drayver" va 271 ta nasos qurilmasi o'rnatildi. 21 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarining boshqaruv jarayoni avtomatlashtirildi. Natijada, 2023-yilning o'zida 7 mlrd metr kub suv tejaldi [9].

Sug'orish infratuzilmalarini modernizatsiya qilish maqsadida 2024-yilda 76 ta obyektga 800 mlrd so'm miqdorda resurslar yo'naltirildi. Mazkur loyihalarni amalga oshirish natijasida umumiy uzunligi 570,4 kilometr kanallar, 21 kilometrli lotoklar hamda 45,3 kilometr yopiq quvurli sug'orish tarmoqlari qayta qurildi. Natijada, 300 ming gektardan ortiq sug'oriladigan hududlar suv bilan ta'minlanish darajasi yaxshilandi. Kanallarda yiliga o'rtacha 450 mln kub metr suv yo'qotilishi oldi olindi[10] hamda suv bo'yicha tejamkorlik 8 mlrd kub metrga yetdi [3; 10].

2025-yilda 1,1 trillion so'm mablag' yo'naltirilib, 864 ta obyektga 1882 kilometr sug'orish tarmog'i betonladi, 185 kilometr lotoklar tarmog'i, 380 kilometr quvurlar, 818 ta sug'orish quduqlari qurildi. Shu bilan birga, 421 ta nasos agregatlari o'rnatildi. Mahallalarda suv ta'minoti bo'yicha 467 mingta xonadondagi 77,5 ming gektar tomorqa yerlari suv ta'minoti yaxshilandi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib 2025-yilda 10 mlrd kub metr suv iqtisod qilish maqsad qilingan. 2030-yilga borib respublika miqyosida umumiy 15 mlrd kub metr suv iqtisod qilish reja qilingan[11].

**Muhokama.** "O'zbekiston-2030" strategiyasi hamda suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, so'nggi to'rt yil davomida suv resurslarini boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, 13174 ta suv ombori va irrigatsiya tarmoqlaridagi suv o'lchash postlarida suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi "Aqlli suv" tizimini joriy etildi. Shuningdek, 10296 ta meliorativ kuztuv quduqlarida sizot suvlari sathi hamda yerlarning minerallasuv darajasini nazorat qilishga mo'ljallangan "Driver" qurilmalari o'rnatildi. Bundan

tashqari, 1748 ta nasos stansiyada suv sarfini masofaviy monitoring qilish uskunalari bilan ta'minlab, natijada 96 ta yirik suv xo'jaligi obyektlarining boshqaruv jarayonlari avtomatlashtirildi [3; 11].

Shu bilan birga, vazirlik tizimida Suv xo'jaligini raqamlashtirish markazi tashkil etilib, suv resurslari hisobini yuritish va nasos stansiyalarining faoliyatini monitoring qilishga xizmat qiluvchi "Suv hisobi" hamda "Nasos stansiyalari" axborot tizimlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi [11].

**Xulosa.** Keyingi yillarda suv xo'jaligi sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki suv xo'jaligi sohasida keskin o'zgarish qilishning birdan-bir yo'li raqamlashtirishdir. Shuning uchun ham nasos stansiyalariga onlayn nazorat va "aqli suv" qurilmalari olib kelingan.

Biroq ulardan olinadigan ma'lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan axborot tizimi yo'q. Suv iste'moli va hisob-kitobi esa o'ta murakkab. Bu borada vazirlik huzurida Suv xo'jaligini raqamlashtirish markazi tuzilishi, unda suv iste'moli va hisobini yuritishning yagona axborot tizimi ishga tushirilishi juda to'g'ri va mutlaqo oqilona qaror bo'ldi.

Suv resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish — kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish garovi. O'zbekiston sharoitida bu qimmatbaho resurs xalqning farovon hayot kechirishi uchun muhim ahamiyat kasb etar ekan, har bir fuqaro suvdan oqilona foydalanishi va uni ifloslanishdan asrashi kerak.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda: "Ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham biz uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi".

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – T.: "O'zbekiston", 2024
2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati milliy ma'ruza: O'zbekiston (2012-2023 yillar). – Toshkent: Barqaror rivojlanish xalqaro instituti, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi joriy arxivi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot // Axborot tahlil bo'limi ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi PF-6024-sonli "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-4892953>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2019-yildagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-4574008>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4.02.2021-yildagi PQ-5005-sonli "O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-5307918>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1.03.2022-yildagi PQ-145-sonli "Quyida bo'lgan suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish hamda suv iste'molchilari orasidagi minosabatlarni tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. <https://lex.uz/ru/docs/-5884123>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.10.2024-yildagi O'RQ-981-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" qonun. [Elektron resurs]. <https://lex.uz/docs/-7168767>
9. Yangi O'zbekiston. 232-son, 2024-yil 15-noy.
10. Asosiy vazifamiz — suv xo'jaligida tejamkorlik va omilkorlik. [Elektron resurs]. <https://gov.uz/oz/suvchi/news/view/30874>. Murojaat etilgan sana: 30.01.2026
11. Hamroyev Sh. O'zbekiston suv xo'jaligidagi ibratli tajribalar. [elektron resurs]. <https://gov.uz/oz/suvchi/news/view/76026> Murojaat etilgan sana: 30.01.2026

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (6) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).